



HAYOT NIMA EKANLIGI VA MODDIY, MA'NAVIY TANLOV

Elmurodova Gulibonu

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti Ijtimoiy fanlar
Filologiya va tillarni o'qitish ingliz tili yo'naliши 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Ortiqov Mironshoh*

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsiy orzular, moliyaviy cheklovlar va oilaviy mas'uliyat o'rtaqidagi ichki kurash tahlil qilinadi. Muallif hayotiy tajribasi asosida tanlovdagi og'riq, vaqtinchalik chekinish va o'zlikni yo'qotmaslik haqida fikr yuritadi. Falsafiy yondashuvlar va shaxsiy kuzatishlar asosida, maqola orzu va mas'uliyat o'rtaqidagi muvozanat izlashga da'vat qiladi.

Kalit so'zlar: orzu, moliyaviy cheklov, tanlov, o'zlik, ichki kurash.

Аннотация: В статье анализируется внутренняя борьба между личными мечтами, финансовыми ограничениями и семейной ответственностью. Автор, опираясь на личный опыт, делится размышлениями о боли выбора, временном отступлении и сохранении своей сущности. Философский подход и личные наблюдения направлены на поиск баланса между мечтой и долгом.

Ключевые слова: мечта, финансовые ограничения, выбор, личность, внутренняя борьба.

Annotation: This article explores the internal struggle between personal aspirations, financial limitations, and family obligations. Based on the author's personal experiences, it reflects on the pain of making choices, the significance of temporary retreats, and the importance of preserving one's identity. Through philosophical perspectives and introspection, the article emphasizes the search for balance between dreams and responsibility.

Keywords: dream, financial constraint, choice, identity, inner struggle.

Hayot haqida falsafiy fikrlar turlicha bo'lib avvalo biz ilmiy jihatdan ko'rib chiqamiz Hayot — metabolizm, o'sish, ko'payish bilan xarakterlanuvchi materiya holatidir. Hayot holatdagi jismlar hayot shakllari yoki organizmlar, deyiladi. Ko'p hayot shakllari atrof-muhitga o'zlarining ichki jarayonlarini o'zgartirib moslasha oladi. Hayot mazmun izlash ko'p falsafiy oqimlar hayotning o'zidan tashqari "tayyor manosi" yo'qligini, balki har bir inson o'z hayotiga ma'no keltirishi kerakligini ta'kidlaydi. Albert Kamyu, Sartr yoki Nietzsche kabi faylasuflar uchun hayot – bu absurddan (ma'nosizlikdan) qochmasdan, o'z qadriyatlarini yaratib, kurash bilan yashashdir. Buddizm yoki Stoitsizm kabi sharq va g'arb falsafalarida hayot doimiy o'zgarish, aziyat va orzulardan iborat deb qaraladi. Mark Avrellyi



aytganidek, hayotda narsalarni nazorat qila olmasak ham, ularga munosabatimizni nazorat qilish bizning qo‘limizda.Ba’zi faylasuflar (massalan, Martin Buber) hayotni "Men-Sen" munosabatlarida ko‘radi: inson faqat boshqalar bilan aloqada bo‘lganda haqiqiy ma’noga erishadi. Sevgi, hamjihatlik va empatiya hayotni boyitadi.Shuningdek hayot – tabiat va kosmosning bir qismi Taoizm yoki ekofalsafa kabi yo‘nalishlar insonni butun borliq tizimining bir qismi deb hisoblaydi. Hayotning ma’nosи universal muvozanat va hamohanglikni his qilishdir.Aristotel hayotni "eudaimonia" (baxtli rivojlanish) sifatida ko‘rgan bo‘lsa, pragmatistlar (J. Dewey) uchun hayot – bu tajribalar orqali o‘sish jarayoni. Xatolar ham bilimga olib keladi .Hayot yo‘llar, tanlovlар va kutishlar yig‘indisidir. Har bir inson hayot davomida yuzlab, minglab yo‘nalishlarga duch keladi: ba’zilari ko‘rinarli, boshqalari esa faqat yurak bilan seziladigan. Ba’zan tanlagen yo‘limiz bizni uzoq orzular sari yetaklaydi, ba’zida esa zaruratlar, mas’uliyat va cheklovlar orzularimizning oldini to‘sadi. Bunday holatda har bir tanlov – bu ichki kurashdir. Ushbu maqola muallifning hayotiy kechinmalar, tanlovdagi og‘riq va orzu bilan kurashish tajribasi orqali yozilgan xulosalari ammo shuni aytishim joizki muallif shunchaki havaskor ya’ni hali yetarlicha ko‘nikma hosil qilmagan shaxs sifatida qarash mantiqqa to‘g‘ri keladi. Baxtni kelajakka bog‘lashlari

Yoshligimizdan bizga baxt — kelajakdagi voqeа sifatida talqin qilinadi: “yaxshi o‘qi, keyin baxtli bo‘lsan”, “puling bo‘lsa, baxtli bo‘lsan”. Shu bois, bugunning baxti emas, ertangi yutuqlarga qaratilamiz. Bu holatda bugunning qadrini yo‘qotib qo‘yish mumkinligini anglash mumkin Balki biz kutgan o‘sha baxtli kun bugun kelgandir deb qaraylik.”Hayot hammaga bir xil adolatli emas – va bo‘lishi ham shart emas.”Ko‘pchilik hayotda hamma narsaadolat asosida bo‘lishi kerak deb o‘ylaydi: kim ko‘p mehnat qilsa, mukofot oladi; kim mehribon bo‘lsa, sevgi topadi. Lekin aslida hayot bunday ishlamasligi mumkin .Ba’zilar mehnat qilib ham hech narsaga erisha olmaydi, boshqalar esa omadi kelib, hech narsa qilmasa ham yutadi. Bu haqiqat achchiq, lekin uni bilish hayotga har qanday chuqurlik mavjud degan fikr bera oladi.Haqiqatni qabul qilib, undan qochmaslik va qochish bu yechim emasdir deb qarash yaxshi natija berishi mumkin. Hayot og‘ir bo‘lsa ham, uni ideal qilishga emas, balki unga moslashishga harakat qilish maqsadga muvofiq .Odamlarga yaxshilik qilish davom ettirish lekin evaziga narsa kutmaslik anchayin savollarga javob bo‘la oladi.Ko‘proq yozish, ko‘proq tinglashu,kamroq shikoyat qilish har bir insonning dardini ham, quvonchini ham chuqurroq tushunishga harakat qilishni mukammallik deb atash mumkin ammo unutmaylikki biz mukammal emasmiz.Orzularimiz ushalmasa nima qilishimiz mumkin?Avvaliga og‘riq bo‘lardi. Bu tabiiy.Lekin keyin o‘ylash: "Bu orzu mening yo‘lim emasdir ehtimol. Balki bu orzidan ham zo‘r yo‘l bordir."Shuningdek, orzuni o‘zgartirmasdan, unga olib boradigan yo‘lni o‘zgartirgan bo‘lardim.Va ba’zida orzular ushalmasa ham, u yo‘ldagi o‘zgarishlar odamni yanada kuchliroq qiladi.Orzu va tanlovimiz...birinchisi — o‘z orzularining ortidan boshqa shaharga o‘qishga ketish, ikkinchisi — onasining istagi, oilaviy holat va iqtisodiy cheklovlar sababli o‘z shahrida qolish. Bu tanlov og‘riqli bo‘ladi . Chunki bir tarafda stipendiya olish, maqola va ilmiy





ishlarga mablag‘ topish ehtiyoji bo‘lsa, ikkinchi tarafda — o‘zligidan uzoqlashish, vaqtincha orzularga “yo‘q” deyish majburiyati turardi. Natijada muallif sharoitni inobatga olib, o‘z shahri va oilasi yonida qolishni tanladi. Ammo bu tanlovda u ichki dunyosidan butkul voz kechmadi — balki orzularini yana ham kattaroq qilishga qaror qildi .O‘zlik — bu faqat istak emas, bu ichki yong‘in, ruhning asl ovozidir. Inson o‘zini unutmas ekan, orzularni qaytadan tiriltira oladi. Muallif o‘z orzusizga borish o‘rniga, ular uchun hozircha kurashish yo‘lini tanladi. O‘qish xarajatlari, stipendiya olish, ilmiy faoliyat uchun kerakli mablag‘ topish — bularning bari qiyin, ammo imkonsiz emas. U har kuni oz bo‘lsa-da, ichki olamini tutib turish uchun yozadi, o‘qiydi, reja tuzadi va shu orqali xuddi Fyodor Dostoyevskiydek yozish orqali vijdoni yuvish yo‘lini tanladi ,ya’ni ko‘pchilik asarlarida Dostoviskiy vijdonga urg‘u berib yozish orqali bor ruy va tanasining xohish majburiyat va asosiy tushuncha yoki tabiiy jarayon va imotsiya aralashmasi kelib chiqadi va o‘zini yangilab oladi yozish orqali.Uning(muallif) yuragida og‘riqli haqiqat bor: hayot har doim xohlaganimizdek bo‘lmaydi. Lekin shunga qaramay, o‘zligimizni asrash — bu eng muhim kuch.Tanlov — har doim yo‘qotish emas.. Lekin ba’zida vaqtincha chekinish — o‘zlikni saqlab qolish uchun eng to‘g‘ri yo‘l bo‘ladi. Har bir inson hayotda og‘ir tanlovlarga duch keladi. Siz shunday tanlov qilgan bo‘lsangiz — o‘zligizni biroz chetga surib, oilaviy holatni, onaizni, amaliy hayotni tanlagan bo‘lishiz mumkin Va bu tanlov — qo‘rroq emas, mas’uliyatli inson tanlovi.Lekin shu yerda bir muhim narsa bor: O‘zligingni kechish- bu butunlay yo‘qotding degani emas.Faqat unutmaylik bu vaqtinchalik. Siz o‘zingni unutsangiz butunlay ketadi. Lekin yashirib saqlasangiz — bir kun charaqlashi uchun harakat qilinsa albatta charaqlaydi ,ya’ni muallifi shu universitetni avvlalo homiy va uni to‘laqonli ravishda sotib olish orqali charaqlatirdi agar ilmiy nazaryaga qaytsak hayot hech qachon tekis yo‘l emas. U doimo to‘siquar, tangliklar va qarama-qarshiliklardan iborat. Lekin aynan shu chalkashliklar orasidan yengib chiqish jarayoni insonni kuchliroq, dono va ma’noli qiladi. Bu nazariya bir necha asosiy tamoyillarga tayanadi: Chalkashlik – Rivojlanish uchun imkoniyat Har bir qiyinchilik yashash uchun yangi yo‘l ochadi. Stoik faylasuf Epiktet: "Agar hayot sizni haqorat qilsa, unga chidang – chidab bilganingizda siz kuchlanasiz"** degan. Masalan, ishdan bo‘shatilish yoki munosabatlardagi sindirishlar yangi ko‘nikmalar.Ko‘pincha, eng qiyin paytlarda inson o‘ziga qaytadi: **"Nima uchun?", "Kimman?", "Qayerdaman?"** degan savollar paydo bo‘ladi. Bu – falsafiy uyg‘onish davri. Budda aytganidek, **"Azob – haqiqatni ko‘rish uchun darsdir"**. Nemis faylasufi Fridrix Nietzsche: **"Meni o‘ldirmaydigan narsa meni kuchliroq qiladi"** degan g‘oyasi mashhur. Chalkashliklarni yengishning 3 bosqichi:

- **Qabul qilish** (bu bor, qochib bo‘lmaydi),
- **Tahlil qilish** (nimani o‘zgartirish mumkin?),
- **Harakat** (yangi yechimlarni sinash).

Psixologlar ta’kidlashicha, odamlar qiyinchiliklardan keyin nafaqat "tuzaladi", balki undan kuchliroq chiqadi. Masalan, kasallikdan so‘ng inson hayotni ko‘proq qadrlashi yoki yo‘qotishdan keyin yangi maqsad topishi. Har bir kishi o‘z hayotida bir necha marta "qayta





tug‘iladi”. O‘tmishdagi og‘ir daqiqalarga qarab, odam: *“Qanday qilib men buni yengdim?”* degan savolga javob topadi. Va shu javob – uning kuch manbai bo‘ladi. Agar hayot sizga chalkash tuyulsa, esda tuting:

- **Har bir qiyinchilik – yangi darajaga chiqish uchun zinapoya.**
- **Yengib chiqish – sizning ertangingizni qurishning bir qismi.**
- **Eng muhim – harakat

Hayot — tanlovlар va sabr sinovlaridan iborat yo‘l. Har bir inson baxt, orzu va mas’uliyat o‘rtasida muvozanat izlaydi. Ba’zida moliyaviy cheklovlar yoki oilaviy majburiyatlar sababli orzularni kechiktirishga to‘g‘ri keladi. Ammo muhim narsa — o‘zligimizni saqlab qolishdir. Orzular hozircha uzoqda bo‘lishi mumkin, lekin yurakda yashasa, bir kun uni amalga oshirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Vaqtincha chekinish mag‘lubiyat emas, balki kuch yig‘ishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nietzsche F. Zarathustraning so‘zлari. – Hayot va kuch haqida falsafiy qarashlar.
2. Camus A. Sizif afsonasi. – Absurd hayot va ma’no izlash haqida.
3. Dewey J. Tajriba va ta’lim. – O‘zlik va tanlov orqali o‘sish falsafasi.
4. Epiktet. Yashash san’ati. – Stoik sabr va ichki kuch haqida.
5. Vikiqtibos

